

**ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ.
РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ**
AUDITORLIK FAOLIYATIDA EKSPERTNING AHAMIYATI

D.Norboyeva

Iqtisodiyot va menejment kafedrasini o'qituvchisi

S.Tursunqulova

Kibersport fakulteti 531-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada auditorlik ishlarida ekspert ishidan qanday foydalanish, qanday hollarda auditor uchun ekspert zarur bo'lishi va ekspert xulosasi qanday turlarga bo'linishi, har bir turda qanday jarayonlar mavjudligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: Audit, ekspert, tekshiruv, ekspert tekshiruvga obyektivlik bilan yondashish, ekspert xulosasi, tekshiruv obyekti, ekspert xulosasi, rekvizitlar.

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как использовать работу эксперта в аудиторской деятельности, в каких случаях эксперт нужен аудитору и на какие виды делится заключение эксперта, какие процессы существуют в каждом типе.

Ключевые слова: аудит, эксперт, экспертиза, эксперт объективный подход к экспертизе, экспертное заключение, объект экспертизы, экспертное заключение, реквизиты.

Ekspert o'z ishining yetuk mutaxassisini hisoblanadi. Qanday soha bo'lishidan qatiy nazar shu kasbi haqida barcha ma'lumotlar yangilanishlar va o'zgarishlardan xabardor bo'lgan shaxs. "Ekspert ishidan foydalanish" nomli № 620 XASga asosan **Ekspert** – auditorlik tashkiloti shtatida turmaydigan, buxgalteriya hisobi va auditdan farq qiluvchi sohalarda yetarlicha bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassisidir.

Ekspert sifatida auditorlik firmasi yuridik shaxs hisoblangan ixtisoslashgan firmani jalb etishi mumkin. Bu firmalar mol-mulkni baholash, muhandislik, geologiya kabi sohalarda xizmat ko'rsatadilar.

Ekspert – u yoki bu masalada asoslab berilgan fikr-mulohaza bildirishi mumkin bo'lgan faoliyatning muayyan sohasida yetuk bilim, tajribaga ega mutaxassis. U korxona, tashkilot yoki davlat organlari tomonidan ekspertiza o'tkazishga taklif qilinadigan shaxs.

Audit tekshiruviga ekspert bir necha hollarda jalb qilinishi mumkin. Bular:

- ❖ Ma'lum mol-mulkni (yer, bino, mashina, uskunalar va h.k.) baholashda;
- ❖ Mulkning miqdori va holatini aniqlash uchun (foydali qazilmalarining zaxirasi, mashina va uskunalarining xizmat muddati);
- ❖ Bajarilgan ishlarning hajmini aniqlashda (qurilish, geologorazvedka);
- ❖ Sharhnomalar, ta'sis hujjatlari, me'yoriy hujjatlarni yuridik baholashda.

Bundan boshqa vaziyatlar uchun ekspert yordamidan foydalanilmaydi.

Audit tekshiruvida ekspert xizmatidan foydalanish to'g'risidagi qarorni auditorlik firmasi rahbariyati mavjud shart-sharoitning murakkabligi, muhimligi kabi omillarni hisobga olgan holda qabul qiladi.

Audit tekshiruvida qatnashish uchun ekspert quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Ekspert xizmat ko'rsatmoqchi bo'lgan sohada malakaga egaligini tasdiqlovchi hujjat (diplom, attestat, litsenziya);
- Ekspert xizmat ko'rsatmoqchi bo'lgan sohada ish tajribasi;
- Davlat muassasasi tomonidan shu tarmoqda xizmat ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziya.

Ekspert tekshiruvga obyektivlik bilan yondashishi kerak. Ammo bazi bir xollar mavjudki bunday jarayonlarda auditor ekspert xizmatidan foydalana olmaydi.

Audit tekshiruviga ekspert jalb etilgandan so'ng yuqorida qollar ma'lum bo'lib qolsa,

auditor ekspert xulosasining obyektivligini tekshirishi yoki boshqa ekspertni tayinlashi kerak. Auditor mijoz korxonada audit tekshiruvi jarayonida ekspert xizmatidan foydalanish uchun

ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

mijoz roziligini olishi lozim. Mijoz ekspertni tekshiruvga jalb etishni rad etsa, buni yozma ko‘rinishda bayon etishi kerak. Bunday hol ro‘y bergan taqdirda auditor ijobiy auditorlik xulosasini berish masalasini chuqur ko‘rib chiqishi zarur. Auditor ekspert xizmatidan shu ekspert va audit tekshiruvidan o‘tayotgan korxona o‘rtasida yoki ekspert va auditor o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida foydalanadi.

Ushbu shartnomada quyidagi masalalar ko‘rilishi kerak:

- Espert xizmatining maqsadi va hajmi;
- Auditor ekspertdan javob olishni istagan aniq masalalar;
- Ekspert va audit tekshiruvidan o‘tayotgan korxona o‘rtasidagi munosabatlar tavsifi;
- Ekspert o‘z tekshiruvi davomida qo‘llashni rejalashtirgan taxmin va uslublar;
- Ekspert xulosasining shakli va mazmuni.

Ekspert o‘z xulosasini yozma tarzda xulosa ko‘rinishida tayyorlaydi. Ekspert xulosasi auditor ekspert tekshiruvi mohiyatini, uslubiyatini osonlik bilan tushunishi mumkin bo‘lgan shaklga ega bo‘lishi kerak. Xususan ekspert xulosasida quyidagilar yoritilishi zarur:

- Ekspert o‘z tekshiruvini olib borgan korxona turi;
- Ekspert tomonidan aniqlangan har qanday muhim shubhali holatlar;
- Tekshiruvda qo‘llanilgan uslubiyatlar va ularning avvalgi yillardagi ekspert tekshiruvi uslubiyatiga mosligi;
- Tekshiruv natijalar;
- Tekshiruv hajmi va ekspert o‘z zimmasiga olayotgan mas’uliyat ko‘lami.

Ekspert xulosasi 3 bosqichdan tashkil topilgan bo‘lib. Bular:

1. Kirish.
2. Tadqiqot.
3. Xulosa.

Ekspert xulosasining tadqiqot qismida tekshiruv jarayoni va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi. Tadqiqot qismida quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.

- Tekshiruv o‘tkazilgan sohada mutaxassis bo‘lmagan shaxs uchun ham tushunarli tarzda bayon etilgan tekshiruv uslubiyati
- Ekspert tomonidan tekshiruv jarayonida qo‘llanilgan me’yoriy hujjatlar
- Tadqiqot natijalarining professional tarzdagi Tahlili
- Maxsus atamalar qo‘llanilgan bo‘lsa ularning ta’rifi, mohiyati.
- Agar tekshiruv jarayonida ekspert oldiga qo‘yilgan ma’lum tur savollar, masalalarga javob topilmasa ekspert bu holatni ekspert xulosasining tadqiqot qismida bayon etishi kerak.

Ekspert xulosasining xulosa qismida ekspert tekshiruvdan oldin uning oldiga auditor tomonidan qo‘yilgan savollar, masalalarga alohida javob beradi. Har bir savolga aniq javob berilishi, agar javob berishning imkonи bo‘lmasa buning sabablari ko‘rsatilishi kerak. Ekspert oldiga auditor tomonidan qo‘yilmagan, ammo ekspert fikricha o‘rganilishi lozim bo‘lgan savollar, masalalar javoblari bilan xulosa qismida keltiriladi. Ekspert xulosasi tushunarli, sodda ko‘rinishga ega bo‘lishi lozim. Aks holda mutaxassis bo‘lmagan shaxslar xulosadagi ma’lumotlarni turlichcha tushunishlari mumkin.

Xulosa ikki nusxada tayyorlanadi. Uning bir nusxasi audit tekshiruvidan o‘tayotgan korxonaga, ikkinchi nusxasi auditorlik firmasiga beriladi.

Xulosa quyidagi rekvizitlarga ega bo‘lishi zarur

1. Hujjat tayyorlangan sana
2. Ekspert yuridik shaxs bo‘lgan taqdirda uning muhri
3. Hujjatning nomi
4. Ekspertning imzosi

ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Agar ekspert xulosasini o'rganish jarayonida auditor ekspert xulosasida keltirilgan va korxona bergan ma'lumotlar o'rtaida muhim farqlanishni aniqlasa yoki ekspert xulosasi asosli emas degan fikrga kelsa ekspert xulosasini tekshirish uchun kerakli muolajalarni qo'llashi yoki boshqa ekspertni jalb etishi kerak. Ekspert xulosasi audit ishchi hujjatlariga kiritiladi. Audit tekshiruvi jarayonida ekspert xizmatidan foydalanish auditorning zimmasidagi mas'uliyatni kamaytirmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ekspert xizmati auditor uchun juda zarur hisoblanadi va uning yordami bilan auditor o'z xulosasini to'g'ri va aniq bera oladi. Auditor uchun ekspert xizmati asosan aniq hisoblanishi kerak bo'lgan ba'zi bir sohalar uchun zarur bo'ladi. Ekspert xulosaning o'ziga tegishli bo'lgan qismigagina o'zgartirish kirita oladi. Auditor o'zini kasbiy odob axloq me'yorlariga tayangan holda yaxshi ekspert mutaxassislar xizmatidan foydalanishi auditorlik hisobotlar va xulosasida samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.Ahmadjonov, I.Yakubov. Audit asoslari. Darslik. Toshkent-2010. Iqtisod-moliya. 288 bet.
2. M.Mamatkulov, A.Babadjanov, A.Axmedov. Ichki audit. Tashkent-2021. Iqtisod-moliya. 196 bet.
3. B.Hamdamov, Sh.Ilxomov, N.Karimov, M.Hojiyev. Amaliy audit. Darslik. Toshkent-2021. Lesson Press. 288 bet.
4. A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulov. Xalqaro audit. Darslik. Toshkent-2014. 365 bet.
5. A.Karimov, S.Mehmonov, N.Rizaev, Z.Soliyeva. Biznesda buxgalteriya hisobi. Darslik. Toshkent-2021. 298 bet.

WORDLY
KNOWLEDGE